

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**"TASDIQLAYMAN"**

Buxoro davlat universiteti rektori

O. X. Xamidov

*avgust*

Ro'yxatga olindi: №

*avgust*

**TILI O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT MADANIYATI VA TARIXI**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

**Buxoro – 2023**

1  
18.09.2023 11:23

Fan/modul kodi TO'MMT 2404		O'quv yili 2026/2027	Semestr 8	ECTS – Kreditlar 2	
Fan/modul turi Tanlov fan		Ta'lim tili o'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixi	30 Ma'ruza: 14 soat Seminar: 16 soat	30	60	
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – inglizabon mamlakatlar madaniyati va tarixidagi asosiy voqealarni muhokama qilish, ya'ni, davlatchilikning shakllanishi, Britaniya orollarida yashagan ibtidoiy davr odamlari tarixidan boshlab, zamonaviy davrgacha sodir bo'lgan asosiy tarixiy voqealarni muhokama qilish, ularni milliy, mahalliy tarixiy voqealar bilan taqqoslash, til ko'nikmalarini tarixiy voqealar tahlilini muhokama qilishda shakllantirish, qo'llash hisoblanadi.</p> <p>Fanning vazifasi - inglizabon mamlakatlar madaniyati va tarixida sodir bo'lgan voqealar haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish; turli davrlardagi voqeahodisalarni muhokama qilish, tahlil qilish, tarixda nom qoldirgan sulolalar, shaxslar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish, madaniy va tarixiy so'z va iboralardan iborat lug'at boyligini o'rganish, til ko'nikmalarini tarixiy muhokamalarni amalga oshirishda qo'llab, ularni yanada rivojlantirish, talabalarning dunyoqarashini kengaytirish hisoblanadi.</p> <p><b>II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan Qirolligi geografiyasi</b></p> <p>Britaniya orollarining geografik joylashuvi. Hududi va tuzilishi. Buyuk Britaniyaning umumiy ko'rinishi. Buyuk Britaniyadagi hayvonlar olami va o'simliklarning xilma-xilligi. Iqlim va ob-havo. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti.</p> <p><b>2-mavzu. Britaniya me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari</b></p> <p>Britaniya orollari hududidagi qadimiy inshootlar: Stounxenj. Britaniya orollarini dushmanlardan himoya qilish uchun qurilgan turli devorlar: Adrian devori. Buyuk Britaniyadagi mashhur soborlar va cherkovlar: Avliyo Paul sobori,</p>				

18.09.2023 11:24

Vestminster abbatligi.

### **3-mavzu. Britaniya orollarida yashagan ibtidoiy odamlar**

Britaniya orollarining dastlabki kishilari. Ibtidoiy kishilarning yashash tarzi. Tosh asrida Britaniya. Temir asrida Britaniyada istiqomat qilgan odamlarning hayot tarzi. Biker odamlarining o'ziga xos jihatlari.

### **4-mavzu. Rim istilosi**

Rimliklarning Britaniya istilosi tafsiloti. Rimliklar boshqaruviga qarshi qo'zg'olonlar. Qirolicha Boadikaning Rimliklarga qarshi qo'zg'oloni va uning bostirilishi. Rim Imperiyasining qulashi va uning sabablari.

### **5-mavzu. Anglo-Saksonlar istilosi**

German qabilalarining Britaniya orollariga bostirib kelishi. Britaniya orollarida Anglo-Sakson qabilalariga qarashli mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Mersia qirolligining rivojlanish sabablari. Xristian dinining Britaniya orollariga tarqalishi.

### **6-mavzu. Vikinglar istilosi**

Vikinglarning Britaniya orollariga bostirib kelishi tafsilotlari. Buyuk Alfredning dushmanga qarshi kurashishi, uning hayoti va davlat boshqaruvi tahlili. Britaniya Skandinaviyaliklar hukmronligi ostida.

### **7-mavzu. O'rta Asrlarda Angliya. Normandlar istilosi**

Qirol Edvardning boshqaruv davri tahlili. Gasting jangi va unda yuzaga kelgan talofatlar. Angliyada Normandlar boshqaruvi. O'rta asrlar boshida Angliyaning tashqi siyosati.

### **Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi mavzular muhokama qilinishi**

**tavsiya etiladi:**

**Kirish. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan Qirolligi geografiyasi.** Britaniya orollarining geografik joylashuvi. Hududi va tuzilishi. Buyuk Britaniyaning umumiy ko'rinishi. Buyuk Britaniyadagi hayvonlar olami va o'simliklarning xilma-xilligi. Iqlim va ob-havo. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti.

**Britaniya me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari.** Britaniya orollari hududidagi qadimiy inshootlar: Stounxenj. Britaniya orollarini dushmanlardan himoya qilish uchun qurilgan turli devorlar: Adrian devori. Buyuk Britaniyadagi mashhur soborlar va cherkovlar: Avliyo Paul sobori, Vestminster abbatligi.

**Britaniya orollarining dastlabki kishilari.** Britaniya orollarida yashagan dastlabki ibtidoiy kishilarning hayot tarzi. Tosh va Temir tarixiy davrlarining o'ziga xos jihatlari. Britaniya orollarida paydo bo'lgan dastlabki diniy qarashlar va ularning shakllanib borishi. Druidlar va ularning diniy qarashlari.

**Britaniya Rim Imperiyasi mustamlakasi sifatida.** Rim Imperiyasining Britaniya orollariga bostirib kelishi. Mahalliy shimoliy qabilalarning Rim istilosiga qarshi

ozodlik harakatlari. Britaniyaning "rimlashtirilish" jarayoni. Rimliklarning Britaniya orollarini tark etish sabablari.

**Britaniya orollarida Anglo-Saksonlar davri.** German qabilalarining Britaniya orollariga bostirib kelishi. Britaniyada Anglo-Sakson qirolliklarining asos solinishi. Anglo-Sakson qirolliklarining hayot tarzi va o'zaro nizolar, urushlar sabablari. Xristianlik dinining Britaniya orollari aholisi o'rtasida tarqalishi.

**Vikinglarning Britaniya orollariga yurishi.** Vikinglarning Britaniya qirolliklariga hujumi va uning oqibatlarini. Qirol Alfredning dushmanga qarshi kurashi tahlili. Skandinaviyaliklarning Britaniya tarixidagi o'rni.

**Normandlarning Angliyaga bostirib kelishi.** Qirol Garoldning Normandlarga qarshi kurashi va uning fojeaviy o'limi. Uilyam Bosqinchining Angliya taxtiga kelishi sabablari va uning boshqaruv tizimi. "Dumezdey" kitoblarining yaratilish sabablari. Angliyada "feudal" tuzumining o'rnatilishi.

**O'rta Asrlarda Buyuk Britaniya.** Magna Kartaning imzolanishi. Feodal tuzumining yakun topishi. Angliyada dastlabki Parlamentning shakllanishi. Angliyaning Fransiyaga qarshi 100 yillik urushning boshlashi.

**Amaliy mashg'ulotlarning yakunlovchi bosqichida talabalarga o'tilgan nazariy materiallar asosida savollar va matn tahlili uchun vazifalar topshiriladi.** Bunda talabalar tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixining darslarida o'rgangan bilimlaridan foydalanib yozma testni bajarishadi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy topshiriqlar bajarish orqali boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalari asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mustaqil ishlar bajarish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

#### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ishga ajratilgan mavzularni o'rganishning asosiy maqsadi mavzular bo'yicha ishlash jarayonida auditoriyada olib borilgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar paytida talabalarda hosil bo'lgan tasavvur, bilim va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish, talabalarga yangi bilimlar to'plash, mustaqil xulosalar chiqarish va turli ilmiy-amaliy gipotezalarni olg'a surishni o'rgatishdir. TO'MMT fani talabalarni mustaqil o'rganishlari, referatlar yozishda, mustaqil fikr yuritishlari amaliy mashg'ulotlarda har xil tematika ma'ruzalar tayyorlashlarini, talabalar ilmiy anjumani hamda ingliz tilini o'rganish to'garaklarida faol ishtirok etishlarini taqozo qiladi. Mustaqil ishlarning natijalari mavzu bo'yicha prezentatsiya (Power Point), referat, ma'ruza, konspekt, debat ( yoki round-table discussion) shaklida rasmiylashtirilishi mumkin.

### **Mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular**

1. Buyuk Britaniyaning vujudga kelishi
2. Qirollik shajaralari: "Anglo-saksonlar, normandlar va boshqalar"
3. Britaniya orollarida Rim istilosining boshlanishi
4. Parlamentning vujudga kelishi
5. Siyosiy partiyalarning yuzaga kelishi
6. Normandlarning Buyuk Britaniyaga bostirib kelishi
7. Gastings jangi va uning oqibatlari
8. Dumesdey Bookning yaratilish tarixi
9. Stuart sulolasining Britaniyani boshqarishi, Parlament bilan sodir bo'lgan nizolar sabablari
10. Buyuk Britaniyada O'rta Asrlardagi Fuqarolar Urushi, sabab va oqibatlari
11. Ispaniya Armadasining Buyuk Britaniya Flotiga qarshi urushi, sabab va oqibatlari
12. "Dehqonlar qo'zg'oloni" boshlanishining sabab va oqibatlari
13. Yelizabetta I Angliyaning buyuk qirolichasi sifatida
14. Tyudorlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi sabablari va islohotlari
15. Kristofer Ren, buyuk ingliz me'mori, uning hayoti va faoliyati
16. Tomas Geynsboro, atoqli ingliz rassomi, uning hayoti va ijodiy faoliyati
17. Buyuk Britaniyaning siyosiy ramzlari
18. Liverpool, Angliyaning maftunkor shahri
19. Uels
20. Shotlandiya

### **Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

3. Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixi fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr talabalari:

- xorijiy tillarda fikrni ifoda qilish usullari va ularning nutqning og'zaki va yozma shakllarida qo'llanilish qonuniyatlarini;
- til sohibining keng tarqalgan kundalik va kasbiy vaziyatlarda so'zlagan nutqini tushuna olishni;
- radio, televideniye, audio-videokassetalar orqali tinglash uchun berilgan

kasbga oid autentik ilmiy matnlarni tushuna olish va ulardan o'zi uchun zarur bo'lgan axborotni bilishi kerak.

Bular bilan bir qatorda bakalavr talabalari:

- inglizabon mamlakatlar madaniyati va tarixida sodir bo'lgan voqealar haqida ilmiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak;
- turli davrlardagi madaniy va siyosiy voqea-hodisalarni muhokama qila olishi kerak;
- tarixda nom qoldirgan sulolalar, shaxslar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi kerak;
- madaniy va tarixiy so'z va iboralardan iborat lug'at boyligini o'rganishi kerak;
- til ko'nikmalarini tarixiy va madaniy mavzular muhokamalarni amalga oshirishda qo'llab, ularni yanada rivojlantirishlari kerak;
- mamlakatshunoslik malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Ta'limda fanlararo aloqalar, uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida chet tili fani maxsus fanlar va o'quv rejasining boshqa bloklardagi fanlar bilan o'zaro aloqada integrallashgan holda o'rgatiladi

#### 4. **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari tarqatma materiallar va slaydlardan foydalaniladi. Amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash nazarda tutilgan. Ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiyalar va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Kichik guruhliy musobaqalar o'tkazish tavsiya qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan "Proyekt", "Prezentatsiya", "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn" usullaridan keng foydalanish samara beradi.

#### 5. **Kreditlarni olish uchun talabalar:**

Inglizabon mamlakatlar tarixidagi asosiy voqealarni muhokama qilish, ya'ni,

davlatchilikning shakllanishi, Britaniya orollarida yashagan ibtidoiy davr odamlari tarixidan boshlab, zamonaviy davrgacha sodir bo'lgan asosiy tarixiy voqealarni muhokama qilish, ularni milliy, mahalliy tarixiy voqealar bilan taqqoslash, til ko'nikmalarini tarixiy voqealar tahlilini muhokama qilishda shakllantirish, qo'llay olishlari kerak; egallagan bilimlarni o'z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo'llashni bilish hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish va topshirish; Inglizabon mamlakatlar madaniyatiga oid asosiy ma'lumotlarni muhokama qilish, ya'ni Britaniya orollarida yashagan ibtidoiy kishilarning madaniyatidan boshlab hozirgi davr milliy-madaniy hayot, turli istilolar tufayli Britaniyaga kirib kelgan madaniyatlar ta'siri hamda turli davrlarda rassomchilik, haykaltaroshlik, musiqa, kinomatografiya, sport, adabiyot kabilarning o'ziga xos xususiyatlari, turli madaniy davrlarda yashab ijod etgan buyuk ingliz shaxslari hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarga ega bo'lishi, ingliz xalqi urf-odatlarini, turmush tarzi, bayram va festivallari haqida tushunchaga ega bo'lishi va ular haqida erkin so'zlay olishi kerak.

#### 6. Asosiy adabiyotlar

1. Yakubov I. English speaking countries. Tashkent, 2004.
2. Sabirova N, Ataxanova G. The United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland, the USA. – T., 2008
3. Khimunina T.N, Customs, traditions and Festivals of Great Britain. - M., 1984.
4. Burlakova V.V. The United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland. - Leningrad, 1977.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ataxanova G.S.H, Vshyegurova S.X., Kim YU.S. LECTURES ON COUNTRY STUDY. – T, 2010 (<http://www.ziyonet.uz>)
2. Lyeonovich O.A. Stranovyedyeniye Vyelikobritanii.- M.,2004.
3. Oshyepkova V.V. YAzk i kultura Vyelikobritanii, SSHA, Kanad, Avstralii, Novoy Zyelandii : [uchyeb. posobiye dlya studentov vuzov] - M., 2004.
4. Pavlovskaya A.V. Angliya i anglichanye. - M., 2005.
5. Pavlotskiy V.M. Znakomstvo s Amyerikoy. - S. - Pyetyerburg: 1997 g.

	<p>6. Baranovsky L.S., Kozikis D.D. Panorama of Great Britain. – Minsk, 1990.</p> <p>7. Baranovsky L. S., Kozikis D. D. Hello, Amerika! - Minsk, 1995.</p> <p>8. Gearson L. Education in the United Kingdom – London; David Fulton Publishers, 2002.</p> <p>9. Malkok A.M., Smolniski F., Kral T. Celebrate! Holidays in the U.S.A. – Washington, 1994.</p> <p>10. Tursunov M.M., Country-knowing - Bukhara, 2019</p> <p><b>Axborot manbalari</b>  <a href="http://www.britishcouncil.org">http://www.britishcouncil.org</a></p> <p>11. <a href="http://www.bbc.co.uk">http://www.bbc.co.uk</a></p> <p>12. <a href="http://www.uk.ru">http://www.uk.ru</a></p> <p>13. <a href="http://encyclopedia.farlex.com">http://encyclopedia.farlex.com</a></p> <p>14. <a href="http://en.wikipedia.org">http://en.wikipedia.org</a></p> <p>15. <a href="http://www.usa.gov">http://www.usa.gov</a></p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik Kengashining 2023-yil "<u>29</u>" <u>avgust</u> dagi <u>1</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan va tasdiqlashga rozilik berilgan.</p>
8.	<p><b>Fan uchun mas'ul:</b>  <b>M.M.Tursunov</b> – BuxDU, “Ingliz tilshunosligi” kafedrasida dotsent, f.f.f.d. (PhD)</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>Z.I. Rasulov</b> – BuxDU, “Ingliz tilshunosligi” kafedrasida mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  <b>M.U. Saidova</b> – BuxDU, “Ingliz tilshunosligi” kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)</p>